Xulosa va takliflar. Til dunyoning manzarasni idrok etish va aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir til o‘z egalarining dunyoqarashini shakllantiruvchi milliy va o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Inson ismlari jamiyatda shaxsning o‘zini anglashda, bilishda va qahramonlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Bular esa olamning lisoniy manzarasi mifologemalar, metaforalar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar va ramzlar kabi turli vositalar orqali ifodalanadi. Shuningdek, badiiy adabiyotlardagi qahramon ismlarini lingvistik tahlil qilib o‘rganishning ahamiyati, ularning kognitiv faoliyatiga ta’sir etishdagi roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Худойберганова З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. “Замонавий таълим”, “Современное образование”, Т., 2016, № 1, 5-бет.

(2). Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. Т., “Университет”, 2018, 180-бет.

(3). Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language (2nd ed.), Cambridge: Cambridge University Press. 1997.

(4). Fernandes L. Translation of Names in Children’s Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play. New Voices in Translation Studies, 2006, 2, p. 44–57.

(5). Fernandes L. Translation of Names in Children’s Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play. New Voices in Translation Studies, 2006, 2, p. 44–57.

(6). Algeo John., Algeo Katie. Onomastics as an Interdisciplinary Study. Name: Journal of the American Name Society, 2000. 48. September/December, p. 265–274.

(7). Algeo John., Algeo Katie. Onomastics as an Interdisciplinary Study. Name: Journal of the American Name Society, 2000, 48. September–December, p. 265–274.

(8). Lombardi Esther. Literature. About.com Guide. Retrieved September 2, 2013, from http://classiclit.about.com/od/literaryterms/g/aa_whatisliter.htm

(9). Mill J.S. A System of Logic Ratiocinative and Inductive. London, Routledge, 1843.

(10). Флоренский П.А. История философии философия историческая литература. 2000.

(11). Wamitilia Kyallo Wadi. What’s in a Name. Towards Literary Onomastics in Kiswahili Literature. Afrikanistische Arbeitspapiere – Schriftenreihe des Kölner Instituts für. 1999, Afrikanistik, 60, p. 35–44.

(12). Bhavikgiri Vishnugiri Goswami. An analysis of Linguistic features in Harry Potter book series. SURABHI – International Peer-Reviewed Referred Journal Vol. 1, January, 2022 (58th Issue), p. 28.

(13). Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London, Penguin Group, 2001.

https://www.etymonline.com/search.

www.harrypotterfans.net/potterica/index.html – accessed September 2011.

Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.)

QORAQALPOQ TILIDA ANTONIMIK MUNOSABATDAGI FE‘L SO‘Z TURKUMINING GURUHLARI

Annotatsiya. *Qoraqalpoq tilida fe‘l so‘z turkumi antonimiya hodisasini hosil qilishda unumli hisoblanadi. Fe‘llardan yasalgan antonimlar bir qancha semantik guruhlarni tashkil qiladi. Ulardan ba‘zilari tilda faol ishlatilsa, ba‘zilari bunday xususiyatga ega emas. Bosh kelishikdagi so‘zlar va fe‘l so‘zlarga ko‘makchi fe‘llarning birikishidan qo‘shma fe‘llar antonimik munosabatga kirishadi. Sifatdoshning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari harakat orqali predmetning belgisini bildirib kelganda o‘zaro antonim bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *fe‘l antonimlar, semantik guruhlar, qo‘shma fe‘llardagi antonimiya, bo‘lishlilik va bo‘lishsizlik formalaridagi antonimiya, sifatdoshlardagi antonimiya.*

ГРУППЫ ГЛАГОЛЬНЫХ КАТЕГОРИЙ В АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данное время глагол как часть речи считается актуальным для создания антонимии в каракалпакском языке. Антонимы, образованные от глаголов, создают несколько семантических групп. Некоторые из них активно используются, а некоторые не имеют таких свойств. К словам основного падежа и глагольным словам с добавлением вспомогательных глаголов, соединенные глаголы образуют антонимическое отношение. Причастия положительной и отрицательной формы при обозначении признака действия предмета между собой могут стать антонимами.*

Ключевые слова: *глагольные антонимы, семантические группы, антонимия в соединенных глаголах, антонимия положительной и отрицательной формы, антонимия причастий.*

GROUPS OF VERBS IN ANTONYMIC RELATIONS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE

Annotation. *The branch of verb in the Karakalpak Language is useful in building the antonymic situation. The antonyms built by the verbs, organize many semantic groups. Some of them are used in the*

language; some of them have not such peculiarities. The united verbs form antonymic situation while adding the words in possescive case and auxiliary verbs. The participle in negative and positive forms can cause antonymic situation while forming the action.

Key words: *Verb antonyms, semantic groups, the anatomy of united verbs, negative and positive forms of antonyms, the antonyms of partciple.*

Kirish. Qoraqalpoq tilidagi antonimlarni lingvistik tadqiq qilish tilshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur masala qoraqalpoq tilshunosligida hozirgi kungacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Shuning uchun ham adabiy tilni yagona tizimga birlashtirishda ushbu leksik qatlam bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning ahamiyati kattadir. Maqolamizda mana shu keng qatlamning bir bo'lagi bo'lgan qoraqalpoq tilida antonimiyani hosil qilishda faol ishtirok etadigan fe'llardan yasalgan antonimlarning lingvistik xususiyatlarini yoritishga harakat qilindi.

Metodologiya. Fe'llarning ichida ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni anglatadigan turlari ko'p uchraydi va ular muloqot jarayonida, o'zaro fikr almashishda faol qatnashadi. Fe'l so'zlarda antonimiya hodisasining paydo bo'lishi sifat va ravishlardan yasalgan antonimlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, *jas – ǵarrı, bay – kámbaǵal, tez – áste* so'zlari o'zaro antonim bo'lganidek, shu so'zlardan yasalgan *jasarıw (jasarmaq) – qartayıw (qartaymaq), bayıw – kámbaǵallasıw (kámbaǵallaspaq), tezlesiw – ástelesiw* kabi so'zlar ham antonimik ma'noga ega. Bulardan tashqari, *kirmek – shıqpaq (joqarıǵa), shıqpaq – (tómenge) túspek, jıynalmaq – tarqalmaq* kabi qarama-qarshi bo'lgan harakatni anglatuvchi so'zlar ham fe'l antonimlar qatoriga kiritiladi [1;147-b.]. Bunday holatni anglatuvchi fe'llar o'rtasida antonimlarning faol ishlatilishini quyidagi misollar asosida ham ko'rishimiz mumkin: Qara ógiz *ketip* atır, Qızıl ógiz *kelip* atır (xalq topishmog'i). *Ushqanı* kókte sayraydı, *túskeni* ıssıda qanatın qaǵıp, jorǵalap ketip, puta-puta menen kók shóplerdiń arasın sayran etedi (J.Aymurzaev).

Qozoq tilshunosligida fe'l antonimlarning leksik ma'nosi bo'yicha guruhlari aniq ko'rsatib berilgan. J.Musin fe'l antonimlarni leksik ma'nosi bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. To'g'ridan to'rg'i obyekt bilan bog'liq harakatlar.
2. Harakatning yo'nalishi.
3. Harakat qiluvchi predmetning holati [2;22-b.].

R.Shukurov o'zbek tilida fe'llardan yasalgan antonimlarni leksik ma'nosi bo'yicha to'rtta guruhga ajratadi:

1. Qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar.
2. Predmet holatiga bog'liq fe'llardan yasalgan antonimlar.
3. Odamlarga xos bo'lgan holat va munosabatlarni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimla.
4. Umuman bir-biriga qarshi, biri ikkinchisini inkor qiladigan harakatlarni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar [3;14–15-b.].

Bu guruhlarning har biri o'z ichida yana bir qancha kichik ma'no guruhlariga ega. Fe'llardan yasalgan antonimlarning ma'no jihatidan bunday guruhlarga ajratilishi qoraqalpoq tilida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ishimizda antonim fe'llarni quyidagicha semantik guruhlarga bo'lib o'rgandik:

I. Qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar. Ular o'z ichida quyidagi ma'no guruhlariga ajraladi:

1. Qarama-qarshi tomonga bo'lgan yo'nalishni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *kelmek – ketpek, kelmek – barmaq, barmaq – qaytpaq, shıǵıw (joqarıǵa) – túsiw, ilgerilew (alǵa basıw) – sheginiw* va h.k. Masalan: Birewi *kelip*, birewi *ketip*, Aǵılǵan aǵım sezdirmes ózin (T.Jumamuratov).

2. Ichkariga va tashqariga bo'lgan yo'nalishni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: *kiriw – shıǵıw, júklew – túsiriw, kirmek – shıqpaq, toltırıw – bosatıw* va h.k. Masalan: Egizbaevtıń kabinetine birew *kirdi*, birew *shıqtı* (Sh.Seytov). «Himm gáp buyaqta eken», dedim de shıqtım, at arbanı qosıp, keshke shekem bir arbasın *júklep* qayttım-á! (Sh.Seytov). Sharbaqshı da qıńırlıq etpedi, Amanlıq penen eshegine bir góne seyisxananı *bosatıp berdi* (T.Qayıpbergenov).

3. Biror narsani (eshikni, oynani, qulfni va h.k.) ochish va yopishni ifodalovchi fe'llardan yasalgan antonimlar: ashıw – jabıw (ishikni), ashıw – qulıplaw (qulfni), oraw – ashıw (sovg'ani), buraw – óshiriw (radioni) va h.k. Masalan: Sennen basqa bul esikti tek jel *ashıp*, jel *jabadı* (T.Qayıpbergenov). Jumaxan sıp etip shıǵıp ketti de seyfin *ashıp* registraciya dápteriniń sol betin sudyanıń kóz aldına tuttı (Sh.Seytov). «Dokumentti kim joytsa da nızam aldında juwap beredi, otız ekiniń 8-avgustı menen ózi tartılıp kete me, kim bilsin ele!», dep qapılttı hám ózi registraciya dápterin seyfke salıp *qulıplap tasladı* (Sh.Seytov).

4. Narsa, hodisalar hajmidagi o‘zgarishlarni ifodalash ma‘nosidagi fe‘l antonimlar: *keńeyiw – tarayıw, uzayıw – qısqarıw, úlkeyiw – kishireyiw* va h.k. Masalan: Mart ayınıń aqırları, tún *qısqarıp*, kúnler *uzayıp* atırǵan bir máhál edi (J.Saparov).

5. Narsa, hodisalarni qo‘shish va ajratish ma‘nosidagi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *baylaw – sheshiw, úziw – jalǵaw* va h.k. Masalan: Sol tiykarda *úzilip qalǵan* sawda baylanısların qayta *jalǵamaqshı* (T.Qayıpbergenov). Anaw ekewine shofyor otlap júrgen eki eshektiń tusawın *sheship* ákelip, qolların artına qayırıp, tırıstırıp *bayladı* (Sh.Seytov).

6. Insonlarning o‘zaro munosabatlarini, oldi-berdisini ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *almaq – bermek, alıw – satıw* va h.k. Masalan: *Almaqtıń bermegi* bar (Qoraqalpoq xalq maqollari). – Dúkanda un bar erteń *alasań*, dúkanshı «búgin basqa sawdanı júrgizbey taslaydı, unnıń kilolap ólshewi qıyın, nırqı arzan» – dep satpay tur, erteń *satajaq*, dedi Abıllaǵa qarap Mádiyar (Sh.Seytov).

II. Narsa-hodisalarning holati bilan bog‘liq fe‘llardan yasalgan antonimlar. Ularni o‘z ichida quyidagi ma‘no guruhlariga ajratish mumkin:

1. Narsa-hodisalar holati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *awırlasıw – jeńillesiw, asırıw – kemeytiw (reja), ısıtıw – suwıtıw (havo), ısıtıw – suwıtıw (yomg‘ir), kúsheyiw – páseyiw (shamol)* va h.k. Masalan: Denesi birese *jandı*, birese *suwıdı*, tórtinshi kúni tańnıń aldında Aqbiyday birotala tamam boldı (T.Qayıpbergenov). Sonlıqtan tezlikti ózgertiw ushın sceplenieni yamasa tormozdı qayta-qayta basıp, jiyi-jiyi gazdi *páseytip*, ya *kúsheytip* otırıwǵa tuwra keldi (A.Dáwletmuratov).

2. Predmetning paydo bo‘lishi va yakunlanishini ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *tuwılıw – óliw, janıw – óshiw, kógeriw – quwraw* va h.k. Misollar: – Bizge bala tuwdırıp eldi kóbeytpekshimiseń? Olar jáne *ǵárep boladı*, sen shirkin ǵárep qılasań! (T.Qayıpbergenov). Kúni menen *janıp* turǵan elektr nurları on ekilerden keyin birim-birim *sóne basladı* (Ó.Embergenov).

3. Umuman, bir-biriga qarama-qarshi, biri ikkinchisini inkor qiladigan harakatlarni ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *saqlaw – joǵaltıw, joǵaltıw – tabıw, ashırqaw – toyıw, maqtaw – jamanlaw* va h.k. Masalan: –El *ashırqadı* desek sizler *bayıpsız*? (T.Qayıpbergenov). Adamnıń adam *óltiriw* qolınan keledi, liykin *tiriltiw* qolınan kelmeydi….(Sh.Seytov).

III. Insonlarga xos bo‘lgan holat va munosabatlarni ifodalovchi fe‘l antonimlar. Ular o‘z ichida yana quyidagi ma‘no guruhlariga bo‘linadi:

1. Insonlarning ruhiy holatini ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *kúliw – jılaw, quwanıw – qayǵırıw, súyiniw – kúyiniw, ráhátleniw – azaplanıw* va h.k. Masalan: Kiyeli dúnya! Birewlerdi *jılatpay*, birewlerdi *kúldirmeyseń* (T.Qayıpbergenov). Eldi oylap kelgenińe *quwansań*, Yardı oylap *qıynalasań* qamıǵıp (T.Jumamuratov).

2. Insonlarning fiziologik holatini ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *jasarıw – qartayıw, semiriw – azıw* va h.k. Masalan: Ekewi de tolısıp *semirdi*. Sheke tamırları shertilip, andız shóptey *azǵanın*, erniniń bir jaǵı ayǵız-ayǵız jarılǵanın Amanlıq endi kórdi (T.Qayıpbergenov). Barlıq keselden ayıǵıp, úshinshi kún degende tańlanǵanǵa «túpirip qara» dep bulttan shıqqan ayday jarqıldap shıǵa keldi, on segizindegidey *jasarıptı* (Sh.Seytov). Men *qartaydım*, meni saylamań dep úylerge kirip shıqsa da, báribir, saylanıp ketti (Sh.Seytov).

3. Insonlarning moddiy holatini ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *bayıw – kámbaǵallasıw, toyınıw – jarlılanıw, jıynaw – sarıplaw* va h.k. Masalan: Jetimniń bir toyǵanı shala *bayıǵanı* (Qoraqalpoq xalq maqollari). Náwbettegi jawgershilikten keyin ortadármiyan xojalıqlardıń derlik barlığı *kámbaǵallastı* (T.Qayıpbergenov). Baydıń sonsha jıllardan berli tis-tırnaqlap *jıynaǵan* baylıǵın balası bir jıldıń ishinde *sarıplap* jiberipti (Qq.x.e.).

4. Insonlarning o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi fe‘llardan yasalgan antonimlar: *urısıw – jarasıw, ajırasıw – jarasıw, sálemlesiw – xoshlasıw, aqlaw – qaralaw, eslew – umıtıw* va h.k. Masalan: Soń meni tanıdı da ornınan ushıp turıp, eki qollap *sálemlesti*. Ol meniń menen *xoshlasıp*, tap segiz ulın úylendirerde tóleytuǵın «qalıń mal» awırmanlıǵın kótere almaǵanday, iyni tómen túsip, alleya boylap áste kete berdi (A.Dáwletmuratov). –Kim menen *urıssań*, jánjellesseń, *jarasqanday* sańlaq qaldırıwdı úyreniwiń kerek, ulım! (T.Qayıpbergenov).

Tahlil va natijalar. Qo‘shma fe‘llar ham antonim bo‘lib kela olish xususiyatiga ega. Bunday holatda asosiy fe‘l qo‘shma fe‘llarning umumiy leksik ma‘nosini ifodalalab keladi. Masalan: *kirip keldi – shıǵıp ketti, baratır – kiyatır.* Bunda *kiriw – shıǵıw, barıw – keliw* so‘zlari o‘z aro antonimik munosabatga kirishadi. Masalan: Piyadası, arqalamayshısı sıymay atırǵan dárwazanıń dál ortasında shıǵıp kiyatırǵan túye menen kirip baratırǵan túyeniń sazaǵı berman súyrep, tar dárwazaǵa tıǵın bolıp atır, *kirejaq kire almaydı, shıǵajaq shıǵa almaydı* (Sh.Seytov). Zubayda baslıq aytqan on minuttan ótkerińkirep esikten *kirip keldi*

(Sh.Seytov). –Onda oyanıp ketpesten burın barayın! –dep, baslıqtıń xatın aldına tasladı da shayqatılıp barıp, esikten *shıǵıp ketti* (Sh.Seytov). *Kel demek* bar, *ket demek* joq (Qoraqalpoq xalq maqollari).

Antonimik munosabatda bo‘lgan qo‘shma fe‘llarning bir guruhi bosh kelishikdagi so‘zlarga ko‘makchi fe‘llarning birikishidan hosil bo‘ladi: *jek kóriw – jaqsı kóriw, úmit etiw – gúder úziw* va h.k. Masalan: *Jan almaq* ańsat *jan bermek* qıyın … (Sh.Seytov). *Jaqsı kórsem* qáyteyin! –dep eki kózin jeńi menen sıpırdı (Sh.Seytov). *Jek kórgen* adamnıń ózin sonshelli baspalatqanına tap usı máýlette bir jarılǵısh bomba bolmaǵanına qattı ókindi (Sh.Seytov).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikda fe‘llardan yasalgan antonimiyada *-ma//-me, -ba//-be, -pa//-pe* affikslari yordamida antonimlar yasaladimi? kabi munozarali fikrlar ham yuzaga kelmoqda. Bizga ma‘lumki, ushbu affikslar yordamida fe‘lning bo‘lishsiz shakllari yasaladi. Fe‘lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari o‘zaro antonim bo‘la oladimi? Ayrim tilshunos olimlar ularni antonimlar emas desalar, ba‘zilari antonimlarning alohida bir turi, deb hisoblashadi.

O‘zbek tilshunosligida bu masalani R.Shukurov teran va har tomonlama tadqiq qilib, sifatdosh formasining bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarining antonim bo‘la olishini tasdiqlaydi. Lekin aniqlik mayli shaklidagi bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar antonimik munosabatga kirisha olmasligini til faktlari yordamida ilmiy asoslab beradi. Biz ham R.Shukurovning fikrini to‘liq tasdiqlaymiz. Haqiqatan, sifatdoshning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari o‘zaro antonim bo‘la oladi. Masalan: *oqıǵan – oqımaǵan, pisken – pispegen, kelisken – kelispegen.*

Sifatdoshlar bir tomondan sifat so‘z turkumiga yaqin, sifat so‘z turkumi kabi otga nisbatan aniqlovchi vazifasini bajarishi, ularning o‘zaro antonimik munosabatlarga kirisha olishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, *-ǵan//-gen* shaklidagi sifatdoshlarning antonim bo‘la olishini qoraqalpoq tili faktlari to‘liq tasdiqlaydi. Masalan: *Oqıǵan* ozar, *oqımaǵan* tozar (qoraqalpoq xalq maqoli). Bu misolda sifatdoshlar substantivatsiya hodisasiga uchragan va *oqıǵan* so‘zi *bilimli*, savodli kabi so‘zlar bilan, *oqımaǵan* so‘zi *bilimsiz*, *savodsiz* kabi so‘zlar bilan sinonimik aloqalarga kirisha oladi.

To‘g‘ri, fe‘lning aniqlik maylidagi *keldi – kelmedi, ketti – ketpedi, jıladı – jılamadı* kabi so‘zlar o‘zaro antonimik munosabatga kirisha olmaydi, chunki bu so‘zlarda faqat bitta harakat bo‘lib, unga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin bo‘lgan harakat yo‘q. Biroq sifatdoshning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari harakat orqali narsa-hodisalarning belgisini bildirib kelganda, ularda antonimik munosabat yuzaga keladi. Ular har xil o‘zakli antonimlar kabi birinchi ma‘nosida yoki barcha ma‘nolarida bir-biriga zid antonimik munosabatlarni hosil qiladi. R.Shukurov bunga misol tariqasida *pishgan-pishmagan* sifatdoshlarini keltirib, bu so‘zlarning barcha ma‘nolarida antonim bo‘la olishini o‘zbek tili materiallari negizida asoslab bergan [3;14–15 b.].

Hozirgi qoraqalpoq tilida ham o‘zbek tilidagi kabi, sifatdoshlar o‘zaro antonimik munosabatlarga kirisha oladi. Masalan: *Pisken* gerbishten salınǵan tırnaqlar unırap túlegen (T.Qayıpbergenov). Kempir ol awılǵa barsa jarma ele *pispegen* eken (Qq.x.e.). Basında malaqay, uzın boylı, sın-sınbatı *kelisken* jigit kirip keldi (A.Abdiyev). *Kelispegen* isińdi, bılamıq sındırar tisińdi (Qoraqalpoq xalq maqoli).

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, fe‘llar nutqda qo‘llanishi jihatidan unumli so‘z turkumi hisoblanadi. Antonimik munosabatdagi fe‘llar ham fe‘l so‘z turkumining semantik guruhlarining katta qismini tashkil etadi. Qoraqalpoq tilida fe‘llardan yasalgan antonimlarning yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek turli ma‘no xususiyatlarini ifodalay olishi ularning tilimizda faol ishlatiladigan birlik ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1965.

(2). Мусин Ж. Антонимы в казахском языке. Автореф. дисс… канд.филол.наук, Алма-Ата, 1970.

(3). Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. Тошкент, “Фан”, 1977.

(4). Молонова Л. Антонимы в бурятском языке: лексико-грамматический аспект (в сопоставлении с антонимами русского языка). Автореф. дис. …канд.фил.наук, Улан-Удэ, 2008.

Qodirova Xurshida Marselovna (Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti, PhD; e-mail: xurshidamarselovna@gmail.com)

XORAZM ONOMASTLARINING LEKSIKOGRAFIK FAOLIYATI NATIJALARI VA DOLZARB VAZIFALAR

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati, ularning onomastik leksikografiyaga qo‘shgan hissasi va ularning amaliy ahamiyati, bugungi kundagi Xorazmda onomastik leksikografiyasining ahvoli, natijalar, mavjud muammolar va galdagi vazifalar xususida fikr yuritilgan.*